

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE CONTRIBUTION OF TIMURID PRINCESSES TO SCIENCE AND SOCIAL DEVELOPMENT

Otahanov Alisher Mamadalievich

Independent researcher at Namangan State University

Abstract. This article analyzes the contribution of Timurid princesses to the development of science and society. During the Timurid dynasty, women played a significant role in political, cultural, and scientific life. They actively participated in science, literature, architecture, and philanthropy, making a great impact on societal progress. The article examines specific examples of princesses, their achievements in education and science, their role in social life, and their lasting legacy.

Keywords: Timurid princesses, science, social development, culture, education, philanthropy.

TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALARI

Otaxanov Alisher Mamadaliyevich,

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriy malikalarining ilm-fan va ijtimoiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Temuriylar sulolasi davrida ayollarning siyosiy, madaniy va ilmiy hayotdagi o'rni yuqori bo'lgan. Ular ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va xayriya ishlarida faol ishtirok etib, jamiyat rivojiga katta hissa qo'shganlar. Maqolada muayyan malikalar misolida ularning ta'lim va fan sohasidagi xizmatlari, ijtimoiy hayotdagi ishtiroki va merosi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriy malikalar, ilm-fan, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, ta'lim, xayriya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N08>

Kirish. XIV-XV asrlarni qamrab olgan temuriylar sulolasi o'zining harbiy mahorati, san'at yutuqlari va madaniy homiyligi bilan mashhurdir. Biroq temuriy malikalarning ilm-fan va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga qo'shgan salmoqli hissalarini ko'pincha e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Tadqiqot ishimizda ba'zi temuriy malikalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qiyosiy tahlil qilinarkan, ularning ta'lim homiylari sifatidagi harakatlari, o'zlarining ilmiy izlanishlari va o'z davrining ijtimoiy manzarasiga ta'sirini ochib berish maqsad qilib olingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixdan ma'lumki ba'zi temuriy malikalar ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Xususan ular kutubxonalar tashkil etdilar, qadimiy matnlarning tarjimalarini amalga oshirishib turli fanlar bo'yicha tadqiqotlarni moliyalashtirdilar ham. Ayniqsa, Temur va temuriylar davrida yashab, u yoki bu tarzda siyosiy faoliyat yuritgan ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar esa g'oyat diqqatga sazovordir. Ularga Amir Temurning rafiqasi – Saroymulxonim (1341-1408, Bibixonim), Hirotida Shohrux Mirzoning (1377-1447) xotini – Gavharshodbegim (1379-1457), Umar Shayx Mirzoning (1456-1404) to'ng'ich qizi – Xonzodabegim (1477-1544), Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530)

qizi Gulbadanbegim (1523-1603), Jahongir Shohning (1569-1627) rafiqasi – Nurjahonbegim (1577-1645), Shoh Jahonning qizi – Jahon Orobegim (1614-1681) va boshqalarni kiritish mumkin [11, 12b.]. Malikalar haqidagi tahlililar shuni ko'rsatdi-ki, xususan, temuriy malikalardan Sulton Shohrux Mirzoning xotini Gavhar Shod begim ijodi to'g'risidagi ma'lumotlarda u o'z davrining ilm homiysi bo'lganligi, malikaning tashabbusi bilan temuriylar saltanatida bir qancha masjidlar, kasalxonalar va kutubxonalar tashkil etganligi eslab o'tiladi. Ular orasida eng diqqatga sazovori bu kutubxona hisoblanadi. U yerda butun islom olamidan olim-u fuzalolar jalb qilingan. Kutubxona nafaqat bilimlar ombori, balki ilmiy va munozaralar markazi sifatida ham mashhur edi. O'z davrida Shohruh Mirzo xotini Gavhar Shod begimning aql-zakovatiga tan berib, saltanatni boshqarishda undan oqilona va adolatli maslahatlar olishga harakat qilardi. Shu sababli ham saltanat siyosatiga oid ko'pgina yumushlar malikaning e'tirofi va e'tiboriga havola qilindi. O'ta mas'uliyatli qarorlar jumlasidan malikaga hattoki viloyatlarga hokim tayinlash, qo'shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday ixtiyor va kimga qanday jazo berish masalalarini ko'rib chiqish vakolati ham berilgan edi. Tarixdan ma'lumki, Shohruh Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan ancha yuksaldi. Ayniqsa mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylandi. Tabiiyki, davlatning bunday rivojlanishida tom ma'nodagi "amaliy hukmdor" malika Gavhar Shod begimning hissasi katta edi. Bundan tashqari nafaqat poytaxtda, balki mamlakatning boshqa viloyat va bekliklarida ham qurilish ishlari keng yo'lga qo'yiladi. Inshootlar orasida masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, daxma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko'priklar va sardobalar qurilishiga ayniqsa katta e'tibor qaratilgan[16, 46-53 b.]. Shunday ekan bu davrda, temuriylar davlatining Xurosondagi poytaxt shahri Hirotida ham qurilish ishlariga katta e'tibor berildi ekan, u yerda ikkita katta madrasa, "Dorushshifo" nomli kasalxona va "Dorulhadis" nomli xonaqoh va turli maishiy inshootlar mavjud edi. Odatda me'moriy inshootlar qurilishida xususiy mulkdor va davlatmand kishilar jalb (xayriya tariqasida qurilishlar bunyod etilishiga) etilgan va ular bu ishlari uchun rag'batlantirib borilgan.

Muhokama. Temuriy malikalardan Gulbadanbegim davrida jamiyatdagi muhim o'zgarishlardan biri u ham o'z davrida otasi Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ilm-fan va ma'rifatga homiy bo'lgan. Malika Boburshohning Dildor begim ismli xotinidan tug'ilgan uchinchi qizi bo'lib, manbalarda o'z zamonasining oqila, donishmand ayollari sifatida ta'riflanadi. Xususan, boburshunos olim T.Fayziyevning tadqiqotlarida jiyani Jaloliddin Akbar podshohning "Firdavs makon va jannat oshyon Hazrat haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz, yozingiz", -degan ishorasiga muvofiq, "Humoyunnoma" nomli ajoyib va muhim tarixiy asarini yozishga kirishganligini eslab o'tadi. Tadqiqotchi "Humoyunnoma" asari Bobur podshoh bilan Humoyun podshohning hayot tarzi va sarguzashtlarining muhtasari tarixi va mantiqan "Boburnoma"ning davomi ekanligiga ishora qiladi. Bu asarning muhimligi yana shundaki, "Boburnoma" asaridagi ayrim voqealarning kelib chiqish sabablari mukammal ochib berilgan[13, 40b.]. Gulbadanbegim otasi vafot etib erta yetim qolgan bo'lsada o'z oilasida munosib tarbiya topdi. Ilm-fanga qiziqdi. Vaqt o'tishi bilan jiyani Akbar shoh taxtga o'tirgach, uning iltimosiga ko'ra "Humoyunnoma" asarini yozishga kirishgan. Asar Humoyunga atalgan bo'lib, tom ma'noda, o'z davri uchun yangilik edi. O'z davrida bunday asar yozish haqiqatdan ayollar uchun mushkul bo'lib, garchi boburiylar oilasi davrasida ayollarga nisbatan muayyan erkinlik bo'lgan bo'lsa-da, lekin saroy ahli bilan bo'lib o'tadigan mashvaratlarda asar muallifining o'zi qatnashishi lozim bo'lib, ayollar bunda mashvaratlarda na ma'nan va na

jismonan mumkin emas edi. Lekin shunga qaramay, Gulbadanbegim shijoat bilan farzandlik haqqi-hurmati ila o'z xotiralari bayoni xotimasini otasi Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlashga qaror qilgan. Albatta bunday mas'uliyatli ijodiy izlanishda bizning fikrimizcha faqat jur'atning o'zi yetmas edi. Malikaga tegishli ma'lumotlarni to'plash va ularni muomalaga kiritishda o'ziga yarasha imkoniyatlar zaxirasi ham bor bo'lgan. Xususan malika saroy kutubxonasidan unumli foydalangan va u forsiy, dariy hamda turkiy tillarni mukammal egallagan. Tadqiqotlarda "Humoyunnoma"ning yaratilishi ilmiy jihatdan dastlab ma'lum jihatlari bilan ajralib turganligi tahlil qilinadi. Ya'ni undagi Boburga bag'ishlangan sahifalarda "Boburnoma"da uchramaydigan yangi ma'lumotlar ham o'rin olgan[5, 4-5 b.]. Tadqiqotchi (tarjimon) S. Azimjonovanning fikricha "Humoyunnoma o'sha davrning ko'pchilik shu mazmundagi manbalaridan o'zining nozik uslubi, tarixiy voqealar bayonining soddaligi hamda serma'noligi bilan ajralib turadi" deb ta'kidlaydi[3]. Yana shuning bilan birga muallifning ijod mahsuli Boburdan keyingi bo'lib o'tgan sinoatlar tarixini ham o'zida jamlagan. Bu sohada shuni unutmaslik kerakki, "Humoyunnoma"ga kiritilgan shaxslar, tarixiy, harbiy va madaniy hayotga oid lavhalar bari Gulbadanbegimning shaxsiy tahlili va mantiqiy tadqiqi samarasidir. Bir ayol siymosida mujassam olimlik, shoiralik, ijtimoiy-ijodiy faollik kabi xususiyatlar majmui ifodasidan bemalol aytish mumkinki, "Gulbadanbegim o'rta asr Sharq ayollari uchun ramziy timsol edi"[2, 166-167 b.].

Tadqiqotchi M.Sharaxmetova o'zning katta maqolasida "Gulbadan – O'rta asr Sharqida yagona ayol tarixchidir. U yaratgan asar bir qator jihatlariga ko'ra qimmatli va boshqa tarixiy asarlardan ajralib turadi" – deb talqin qiladi. Shuningdek, "... "Humoyunnoma"ning ijtimoiy fanlar tarixini o'rganishda ham ahamiyati katta. Asar fors tilida yozilgan, biroq unda "Boburnoma" dagi singari hindcha so'zlar qo'llanganligi, shuningdek, o'zbekcha so'zlar ham uchrashi sababli hindiy, urdu, o'zbek tillari tarixiy leksikologiyasi uchun ham qimmatli manba vazifasini o'taydi. "Humoyunnoma" etnograflarning tadqiqotlari uchun ham bebaho materiallar beradi"[15, 456 b.] – degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, Gulbadanbegim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida batafsil hikoya qiladi. Ammo, afsuski, asarning oxirgi qismi o'sha davrining siyosiy keskinlik davrida yo'qolib ketgan.

Temuriy malikalardan Nurjahonbegimni tarixiy manbalarda Jahongirshoh saroyidagi dono maslahatchi, qalami o'tkir shoira, mohir pazanda va uy bekasi sifatida talqin qiladi. Hattoki Nurjahonbegim keyinroq davlat ishlarini Jahongirshoh nomidan boshqargani, hukmdor farmonlariga uning ham imzosi qo'yilgani va zarb etilgan chaqa tangalarda ham Nurjahon nomli yozuv tushirilgani malikaning mamlakatning ichki siyosatida muhim rol o'ynaganidan dalolat beradi.

Temuriy malikalardan Jahon Orobegim ham ijtimoiy hayotda saxovatpeshalikda Nurjahonbegimdan qolishmaganligini ko'rish mumkin. Xususan, u mamlakatdagi kambag'al qatlam va faqirlarga moddiy yordam uyushtirib, ular uchun uy-joylar qurilishini tashkil qiladi. Obodonchilik ishlariga e'tibor qaratib, Kashmir shahrida "Pari Mahal" (Parilar saroyi) nomli katta bog' barpo etadi. Shahdxonobodni suv bilan ta'minlash maqsadida Alimarlonxon arig'ini qazdiradi. Saroydagi adabiy muhitda tarbiyalangan malika o'zining "Risolayi sohibiya" (Do'stlik

haqida) nomli risolasini yozadi. Jahon Orobegim malika bo'lsa-da, shon-shuhratlarga qiziqmadi. U tabiatan kamtar va xalqchil edi.

Amir Temurning opasi va Amir Dovudbek dug'latning xotini bo'lmish Qutlug' Turkon og'a (1331-1383) ham o'z davrida mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan malikalardan hisoblanadi. Tadqiqotlarda Qutlug' Turkon og'a xususida ba'zi ma'lumotlar berilgan bo'lib, jumladan, sohibqiron 1360-yillarning boshlarida raqiblari ta'qibi sababli Samarqandga kelib, Qutlug' Turkon og'aning uyida 48 kun qo'nim topadi. Qutlug' Turkon og'a ko'plab xayrli ishlarning boshida turgan. O'zining xolis g'aznasidan madrasalar, xonaqohlar qurdirgan.

Abu Zafar Muhiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi bo'lmish Zebunniso begim 1639-yil Dehlida tug'ilgan bo'lib, u ham o'z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo'lida savod chiqargan. Otasi Zebunnisoning shoirlik iste'dodini payqab, unga o'z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jovonni muallim qilib tayinlaydi[4, 13-14 b.]. Zebunniso begimni zukko shoir, yetuk olima, tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot ekanligiga shubha qilib bo'lmaydi. Manbalarda uni arab-fors tillarining sarf-u nahv (morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o'zlashtirgan qobiliyat sohibi sifatida talqin etiladi. Temuriy malika nasta'liq, naqsh va shikasta xatlarini zo'r mahorat bilan yozgan. Mohir xattot muqaddas kitob Qur'onni bir necha marotaba husnixatda ko'chirgan va yoddan qiroat bilan o'qigan[10, 466 b.].

Zebunniso begimda ham temuriy malikalarga xos bo'lgan xususiyat ya'ni, olimlarga, shoirilarga va san'at ahllariga homiylik ko'rsatib, ularga maosh to'lab turganligi ma'lumdir. "Olam Islom" tazkirasida "Zebunniso begim otasi hukmdorlik bilan qozonolmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan", deb e'tirof etiladi. Zebunniso begim saroyda she'riyat ixlosmandlaridan iborat bir qator shogirdlarini ilm-ma'rifat va adabiyot sohasida savod berib kelgan. Hattoki Mirzo Abduqodir Bedildek shoir ham o'z qizini Zebunniso begim tarbiyasiga topshiradi. O'z ilmi va tarbiyasida nuqsoni yo'q Zebunniso begim ijod bilan birga otasi shoh Avrangzeb Olamgirning yaqin maslahatchisi ham bo'lgan[6, 31 b.].

Tadqiqotchi T.Fayziyev o'zining "Zebunniso begim" asarida malika haqida yozilgan qator manbalar va adabiyotlardan olgan ma'lumotlarini tahlil qilib malikaning temuriy malikalar orasidagi eng nafosatli va ilmga chanqoq ekanligini ko'rsatib beradi. Xususan, 1922-yilda chop etilgan "Kobul" jurnalining 10-sonida Zebunniso begim haqida shunday ma'lumot uchraganligini ma'lum qiladi: «Zebunniso begimning chiroyli bir devoni bo'lgan. Yana tasavvuf falsafasiga oid "Munis ul-arvoh" asari ham bor. Tafsir sohasida 769 varaqli "Zeb at-tafsir" ("Go'zal tafsirlar)ni yozdi. Bundan tashqari ilohiyotga doir «Zeb an-nashaot» nomli asar yozib, uni ustoz xotirasiga bag'ishladi. Hindiston musulmonlari orasida dasturulamal bo'lib qolgan "Fatavoyi olamgiri" ("Shariat qonunlari majmuasi") asarini fors tiliga tarjima ham qildirdi». Ko'rinib turibdiki, Zebunniso begim o'z zamonasining oqila va zukko qizi, o'sha muhitning barkamol ziyolisi edi[14].

Natijalar. Yana bir e'tiborli temuriy malika Shohrux va Gavhar Shodbegimning qizi Tutukxonimdir. U onasidan adabiy mehrni meros qilib olib, adabiyot va ilm-fanning samarali homiysiga aylangan. Tutukxonim ko'plab qadimiy matnlarni, jumladan, astronomiya, matematika va tibbiyotga oid asarlarni ham tarjima qilib, o'z kutubxonasini boyitib bordi. Shuningdek, uning sa'y-harakatlari bilan butun temuriylar saltanatida ilm-ma'rifat yoyildi.

Temuriy malikalarning bevosita ilm-ma'rifatga qilgan homiyligi ko'pincha ularning turmush o'rtoqlari va aka-ukalarining shaxsiy faoliyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib borgan. Jumladan, Ulug'bek Sultonning qizi Oysha Sulton Begim o'zi mohir astronom sifatida aynan otasining Samarqanddagi mashhur Ulug'bek rasadxonasini tashkil etishida muhim rol o'ynaydi.

Sulton Husayn Boyqaroning qizi bo'lgan Badi' az Zamon ham mohir xattot va shoira bo'lgan. U hukmdor saroyini badiiy va adabiy faoliyat markaziga aylantiradi. Umuman olganda temuriy malikalarning turli fanlar rivoji uchun qilgan homiylik ishlari ilm — ma'rifatni chinakam yuksaltirishga xizmat qilgan.

Nurjahonbegim Jahongir Mirzoning turmush o'rtog'i bo'lib, u haqidagi ma'lumotlar qisman saqlanib qolgan. U ham boshqa temuriy malikalar singari saroy sharoiti va hayotidan kelib chiqib aql-idroki, ziyrakligi va bilimdonligi bilan mamlakat hayotida asosiy rol o'ynagan. Nurjahonbegim ham saroydagi rasmiy qabul marosimlarida faol qatnashib, shuningdek, mamlakatdagi muhtoj va kambag'allarga in'om etiladigan yerlar taqsimotiga boshchilik qilgan. Hattoki bu va shu kabi ishlari uchun uning nomi zikr etilgan tangalar zarb etila boshlagan[1].

Arjumandbonu yoki malikaga berilgan "Mumtozbeqim" ismli temuriy malika ham lug'aviy jihatdan "mashhurabegim" ma'nosini anglatgan ismga mos edi. Malikani hozirgi kunga qadar hindlarda ham iffat, nafosat, fahm-farosat va ayniqsa sevgi-sadoqat bobidagi ayollik ramzi sifatida ardoqlashadi. Asrlar osha bunday iltifotga sazovor bo'lgan malika Shoh Jahon tomonidan barpo etilgan va dunyoning yetti mo'jizasiga da'vogarlik qilgan "Toj-mahal"da o'z aks topadi. Mumtozbeqim faqatgina iymon-e'tiqodli bo'lib xalq orasida tanilmadi balki, u ham g'ariblar, beva-bechoralarga yordam ko'rsatib ularga homiylik qilgan.

Tarixchi Muhammad Musta'idxon Soqiyning "Ma'osiri Olamgiri" asarida temuriy malikalardan Zebunniso haqida qator ma'lumotlar qayd etiladi[12, 448 b.]. Shuningdek uning hayoti, ijodi, iqtidori va saroydagi voqealarga taalluqli jihatlari xususida ko'plab tadqiqotlar mahalliy mualliflar va xorijiy olimlarning ko'pgina maqola va risolalarida qayd etilgan. Zebunnisoning ijodidagi asarlardan Avrangzebning qizlari haqida, faqat qo'lyozma matnidagi ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan. Xususan, Badrunnisobegim haqida quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: "Badrunnisobegim 1057-yili yigirma to'qqizinchi shavvolda tavallud topdi. Hazrat shahanshohning taqozosiga ko'ra u Kalomulloni yodlash va diniy ilmlarni o'rganishga mashg'ul bo'ldi. Solih amallar bilan shug'ullanib, barakotlar topdi. Ulug' otasi taxtga o'tirganining o'n uchinchi yili yigirma sakkizinchi zulhijjada uni Haq o'z rahmatiga oldi". Yoki Zubaydanisobegim xususidagi ma'lumotlar: "Zubaydanisobegim 1061-yili yigirma uchinchi ramazonda borliq olamiga tashrif buyurdi. Toat-ibodat va ilm tahsiliga mashg'ul bo'ldi. Doro Shukuhning o'g'li Sipehr Shukuhning zavjasi edi. Hazrat rihlat qilgan oyda u ham jannatga yuzlandi va uning vafoti xabari padarga ma'lum bo'lmadi". Yoki Mexrunnisobegim xususida: "Mexrunnisobegim 1072-yili safar oyining uchinchi kuni saroydagi xos kanizaklarning biridan tug'ildi. Otasi taxtga o'tirganining qirq sakkizinchi yili, ya'ni hijriy 1116-yilda oxirat saroyiga ko'chib o'tdi"[9, 516 b.].

Yurt tinchligini ta'minlash, urushlarning oldini olish, mamlakat obodonchiligi, ilm-fanning gullab yashnashida temuriy malikalarning ham o'z o'rni bo'lgan. Xususan, Temuriylardan Umarshayx mirzoning to'ng'ich qizi Boburing tug'ishgan opasi Xonzodabegim ana shunday malikalardan edi. Tadqiqotchi T.Qozoqovning maqolasida Zahiriddin Muhammad Boburning keyingi hayoti, sulola taqdiri, qolaversa, mashhur boburiylar sulolasiga asos solinishi va ulkan imperiyaning tashkil topishini bu ayolsiz tasavvur etib bo'lmasligi haqida fikr

bildiradi[7, 76-81 b.]. Haqiqatdan ham tarixdan ma'lumki, Bobur Mirzo Samarqand qamali paytida vaziyatdan chiqish uchun Shayboniyxonning shartlariga rozilik bildiradi. Shunday shartlaridan biri Xonzodabegimni garov tariqasida ushlab turish uchun malikani o'z nikohiga olish kerak edi. Bobur Mirzo uchun bu qanchalik og'ir bo'lmasin Xonzodabegimning jasoratli qarori evaziga rozi bo'lgan edi.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida mazkur voqealar bayoniga kengroq to'xtab o'tilgan bo'lib, xususan, shahar ahlining nochor ahvolda qolganligini bilib, Shayboniyxon oraga sulh so'zini soladi. Ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek, shartga ko'ra Xonzodabegim Shayboniyxonning nikohiga kirishi lozim edi[8, 56 b.].

Samarqandda Shayboniyxon haramida qolgan malikaning keyingi taqdiri qanday bo'lganligi haqida qator manbalarda ma'lumotlar berib o'tiladi. Jumladan, Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", Hofiz tanish Buxoriyning "Abdullanoma", kabi asarlarda Shayboniyxon Xonzodabegimni taloq qilib (taloq qilishining sabablaridan biri, Shayboniyxon Bobur uchun Xonzodabegim undan o'ch olishidan qo'rqqanligi deb manbalarda keltirilgan. "Tarixi Rashidiy") sayidlardan bir kishiga xotinlikka berib yuborgan. Taqdir taqozosi bilan keyinchalik malika ukasi Bobur Mirzoning yoniga qaytadi va umrining oxirigacha mamlakat xavfsizligi yo'lida xizmat qilgan. Ayniqsa Bobur Mirzo vafotidan so'ng siyosiy vaziyat keskinlashib qolganda shahzodalar o'rtasiga tushib ularni murosaga keltirgan. Saroy ahli doimo sulolaviy ichki masalalar yuzasidan muammolarni bartaraf etishda malikaga tayanar edi.

Xulosa. Temuriy malikalari o'z zamonasining ilg'or ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan tarixiy shaxslardir. Ular nafaqat siyosiy va madaniy hayotda muhim rol o'ynagan, balki ilm-fan, ta'lim, adabiyot va me'morchilik sohalarining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab malika ilmiy markazlar va madrasalar tashkil etib, olim va adiblarni qo'llab-quvvatlagan, jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Ularning faoliyati shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davrida ayollar nafaqat oilaviy hayot bilan cheklangan, balki davlat boshqaruvi, fan va ijtimoiy islohotlarda ham faol ishtirok etgan. Bugungi kunda ham ularning merosi tarixiy, ilmiy va madaniy jihatdan o'rganilishi, qadrlanishi va yosh avlodga yetkazilishi muhimdir.

Shunday qilib, Temuriy malikalarining ilm-fan va ijtimoiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi ularning benazir merosi sifatida saqlanib qoladi. Ularning sa'y-harakatlari zamonaviy jamiyat uchun ham ibrat bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmad Muhammad Tursun. Avrangzeb Olamgir. Boburiy hukmdor va ma'rifat homiysi. 2017. – B. 112. <https://e-hilolnashr.uz/catalog/detail/avrangzeb-olamgir>
2. Boltaboyev H. "Humoyunnoma" ingliz adibasi talqinida. // Jahon adabiyoti. 2008. № 9. – B. 166-167.
3. Gulbadanbegim. Humoyunnoma / Fors tilidan S.Azimjonova tarjimasini. – T.: Fan, 1959; Gulbadanbegim. Ulug' saltanatning noyob gavhari. Oksfordda nashr etilgan (1894 y, J. B. Mallison) // Vatanparvar. - 2008.
4. Zebinisobegim. O'z zamonasining lirik shoirasi haqida. //Jalolov T. O'zbek shoiralari. Toshkent, 1970. – B. 13-31.
5. Ismoilov X- Gulbadanbegim yodnomasi. (Boburning kizi Gulbadanbegimning otasi va amakisi xakida yozgan "Xumoyunnoma" asari xakida). // Fan va turmush. № 5. 1984. – B. 4-5.
6. Qodirova M. Zebbuniso. // Mas'ul muharrir: X.Rasulov. – Toshkent. "Fan", 1982. – 31 b.

7. Qozoqov T. Xonzodabegim. O'tmishga nazar // Jurnal. 3 jild. 3-son. – T.: 2020. – B. 76-81.
8. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – T.: Adabiyot va san'at. 1989. – B. 56.
9. Nizomiddinov N.G. Buyuk boburiylar tarixi. (XVI—XIX asr). Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012, – 516 bet.
10. Nuriddinov X. “Ismim Zebiniso...”. XVII asr Shark nazmining benazir vakilasi Zebiniso xakida. // Toshkent okshomi. 1997. 7-mart: Zebinisobegim. O'zbek shoirasi (1639-1702) haqida. // Markaziy Osiyo madaniyati. 2000. 29 sent. 5 okt. – B. 13: Zebinisobegim. Biografik ma'lumot. // O'zSE. – Toshkent, 1971-1980. T. 4. - B. 466-467.
11. Satimov F. Boburiy malikalar: Gulbadanbegim. // Saodat. 1997. № 5. B. 10-11: Satimov F. Boburiy malikalar: Jaxonarobegim. // Saodat. 1998. № 1. – B. 12.
12. Soqiy, Muhammad Musta'idxon Boburiy podshoh Avrangzeb. Ma'osiri Olamgiriylar (Olamgirning xayrli ishlari) (1658-1707) Muhammad Musta'idxon Soqiy; fors tilidan tarjima, lug'at va izohlar muallifi Ilyos Nizomiddinov; maxsus muharrir Gulom Karimiy. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2012. – 448 b.
13. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Risola. T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 40 b.
14. Fayziyev Turg'un. Zebuniso Begim. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/turgun-fayziyev-zebuniso-begim.html>
15. Sharaxmetova M. Boburiylar davrini o'rganishda muhim manba. // “Markaziy va janubiy Osiyo: madaniyatlararo muloqot chorrahasida”. 2022. – B. 456-471. <file:///C:/Users/XE/Downloads/boburiylar-davrini-rganishda-mu-im-manba.pdf>
16. Shafiqa Yorqin. Temuriy malikalarning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi. // Temuriylar saltanatida davlatchilik va renessans. – Toshkent. 2008. – B. 46-53.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).